


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2021 yilning 1 oktabr holatiga 3 422 ta kichik biznes subyektlarini (dexqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2020 yilning shu davriga nisbatan 103,4 foizga ko'pdir).

**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
2021 yilning 1 oktabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)
(dexqon va fermer xo'jaliklarisiz)



Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 32,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida (21,1 %), sanoat sohasida (20,9 %) va qurilishda (6,1 %) tashkil etilgan.

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– investitsiyalar hajmi 7 317,7 mlrd. so'mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 81,0 %) o'zlashtirildi va 2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 98,6 foizni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 2 002,2 mlrd. so'mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 94,7 %) va 2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2 828,1 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 49,8 %) tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 2 843,8 mlrd. soʻmlik koʻrsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 61,2 %) 2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan oʻsish surʻati 118,6 foizni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi 5 214,1 mlrd. soʻmni (jami chakana tovar aylanmasining 86,8 %) 2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan oʻsish surʻati 109,1 foizni tashkil qildi;


– tovarlar eksport hajmi 67,8 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 46,7 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 173,0 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 84,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

– avtomobil transportida 24 634,2 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 93,8 %) 2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan oʻsish surʻati 104,2 foizni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 65 832,9 ming yoʻlovchi tashilib (umumiy yoʻlovchi tashishdagi ulushi 95,3 %) 2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan oʻsish surʻati 103,4 foizni tashkil qildi;

2021 yilning yanvar-sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – 81,7 foizni, sanoatda – 49,8 foizni, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida – 99,2 foizni, qurilishda – 94,7 foizni, eksportda – 46,7 foizni tashkil qilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi




Viloyat boʻyicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish boʻyicha asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlari
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. soʻmda)


Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahar (779,7 mlrd. so'm), G'allaorol (622,4 mlrd. so'm), Forish (235,3 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

Yangiobod (42,1 mlrd. so'm), Baxmal (72,0 mlrd. so'm) va Do'stlik (59,5 mlrd. so'm) tumanlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi pastligicha qolmoqda.

2021 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik biznesda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



2021 yil yanvar- iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (683,4 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (479,2 mlrd. so'm), G'allaorol (327,3 mlrd. so'm) va Zomin (311,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2021 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Qishloq xo'jaligi</i>
Jizzax viloyati	49,8	94,7	61,2	99,2
<i>shahar:</i>				
Jizzax	42,5	86,8	36,5	98,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	40,4	100,0	58,6	99,2
Baxmal	100,0	100,0	82,0	99,6
G'allaorol	98,0	100,0	86,2	99,1
Sharof Rashidov	55,6	100,0	80,5	99,5
Do'stlik	10,5	100,0	72,1	99,7
Zomin	72,1	100,0	76,7	98,9
Zarbdor	38,9	99,9	75,0	99,7
Zafarobod	21,9	98,7	75,4	99,5
Mirzacho'l	100,0	87,4	68,2	98,6
Paxtakor	69,4	100,0	74,1	97,5
Forish	86,2	100,0	82,4	99,0
Yangiobod	100,0	100,0	64,0	99,2

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Do'stlik (10,5 %), Arnasoy (40,4 %), Zarbdor (38,9 %) tumanlarida nisbatan kam, Baxmal (100,0 %), Mirzacho'l (100,0 %), Yangiobod (100,0 %) tumanlarida nisbatan yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Jizzax shahrida (86,8 %) hamida Mirzacho'l (87,4 %) tumanida kam foizni qolgan boshqa tumanlarda esa yuqori o'ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (36,5 %), Arnasoy tumani (58,6 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo'lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha

qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.